

CHET TILLARINI O'RGANISHDA MOTIVATSIYANING O'RNI

Sharapova Sevinch Mirshodovna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 2401-guruh talabasi

Email: sharapovasevka@gmail.com

Ilmiy rahbar: *Turobiddinova Moxigul Akramjon qizi,*

UzDJTU.Tarjimonlik fakulteti

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada chet tillarni o'rganish jarayonida motivatsiyaning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Motivatsiyaning ichki va tashqi turlari, ularning o'quvchilar faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchining motivatsiyani shakllantirishdagi roli, zamonaviy o'qitish metodlari va ta'lim texnologiyalari yordamida o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni oshirish yo'llari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *motivatsiya, chet tili, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, ta'lim jarayoni, texnologiya, samaradorlik.*

Abstract: *This article explores the role and importance of motivation in the process of learning foreign languages. It analyzes the types of motivation—intrinsic and extrinsic—and their impact on students' learning activities. Additionally, the article discusses the teacher's role in fostering motivation, and the ways to increase students' interest in languages through modern teaching methods and educational technologies.*

Keywords: *motivation, foreign language, intrinsic motivation, extrinsic motivation, educational process, technology, effectiveness.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются роль и значение мотивации в процессе изучения иностранных языков. Анализируются внутренние и внешние виды мотивации, а также их влияние на учебную*

деятельность учащихся. Кроме того, обсуждается роль преподавателя в формировании мотивации и пути повышения интереса к изучению языков с помощью современных методов обучения и образовательных технологий.

Ключевые слова: *мотивация, иностранный язык, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, образовательный процесс, технологии, эффективность.*

Bugungi globallashuv dunyosida chet tillarni o'rganish inson hayotidagi eng muhim rollardan birini o'ynaydi. Xorijiy tillarni bilish — shaxsning dunyoqarashini kengaytiradi, madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini yaratadi va kasbiy rivojlanishga turtki beradi. Shu bois, o'quvchi yoki talaba chet tilini o'rganishga qanday sabablar bilan kirishayotgani, ya'ni motivatsiya darajasi, ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiya o'rganish jarayonini faollashtiruvchi ichki kuch bo'lib, u shaxsni maqsad sari harakatga undaydi. Til o'rganishning muvaffaqiyati ko'pincha aynan shu omilga bog'liq bo'ladi. Til o'rganishda motivatsiya qanchalik yuqori bo'lsa, natija ham shunchalik samarali bo'ladi. So'nggi yillarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. O'quvchilar nafaqat ingliz tili, balki boshqa xitoy, turk, yevropa tillari va shunga o'xshash tillarni o'rganishga chuqur e'tibor qaratishmoqda, va bu bilan o'qishda, ishda, shuningdek, kelajak hayotlariga ulkan sarmoya qilmoqdalar. Ushbu maqolada aynan til o'rganuvchilarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlari, motivatsiyalari, ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklar, texnikalar va samaradorlik tahlil qilinadi. Tadqiqot chet tilini o'rganishdagi motivatsion yo'nalishlar nuqtai nazaridan olib boriladi.

Motivatsiyaning mohiyati va turlari. Motivatsiya ikki asosiy turga bo'linadi: ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya — bu shaxsning tilni o'rganishga bo'lgan ichki qiziqishi, tilni bilishdan zavq olishi, o'zini rivojlantirish istagi bilan bog'liq. Psixologlar Deci va Ryan (1985) o'z “Self-Determination Theory” (1985) kitobida aytishgan: “Ichki motivatsiya — bu insonning ichki ehtiyoji, o'sish va

bilim olish istagidan kelib chiqadigan tabiiy kuch.” Ya’ni, tilni majburlikdan emas o’zi xohlab o’rganadi va buni hayotiy maqsad sifatida ko’ra oladi.

Tashqi motivatsiya esa ijtimoiy yoki moddiy omillarga — masalan, ish topish, xorijda o’qish yoki ijtimoiy maqomni oshirishga bog’liq bo’ladi. Bunda aniq maqsad yo’naltirilgan bo’ladi. Masalan, abituryent o’qishga kirishi uchun chet tilidan kamida B2 darajaga erishishi zarur bo’ladi va bu tashqi motivatsiya bilan o’rganishga ishtiyoq oshadi. Gardner bu turdagi motivatsiyani “Instrumental motivation” deb atagan: “Til o’rganish tashqi maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaralganida, u tashqi motivatsiya hisoblanadi.”

Ko’plab tadqiqotchilar til o’rganishda ichki motivatsiya barqarorroq natijaga olib kelishini ta’kidlashgan. Chunki ichki qiziqish o’quvchining tilni chuqurroq o’zlashtirishiga, grammatikani tabiiy o’rganishiga va nutq faoliyatini mustahkamlashiga yordam beradi.

O’qituvchining motivatsiyani shakllantirishdagi roli. O’qituvchi til o’rganish jarayonida asosiy yo’lboshchi hisoblanadi. Uning o’qitish uslubi, munosabati va darsdagi muhit motivatsiyaga bevosita ta’sir qiladi. Agar o’qituvchi darsda interfaol metodlardan, o’yin texnologiyalaridan va zamonaviy kommunikativ yondashuvlardan foydalansa, talabalar o’qish jarayoniga yanada qiziqish bilan yondashadi. Masalan, guruh bilan ishlash, “role play” (rol o’ynash), o’rganilayotgan chet tilidagi filmlar yoki qo’shiqlardan foydalanish — bularning barchasi o’quvchilarning ishtirokini oshiradi va tilga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar va motivatsiya. So’nggi yillarda raqamli texnologiyalar til o’rganish jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Mobil ilovalar (Duolingo, Memrise, Quizlet), onlayn platformalar va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar o’quvchilarga o’z vaqtida, mustaqil va interaktiv tarzda chet tilini yanada tezroq o’zlashtirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar o’quvchini o’rganish

jarayoniga faol jalb etadi, o'z yutuqlaridan zavq olib ko'proq harakat qilish imkonini beradi va shu orqali ichki motivatsiyani mustahkamlaydi. Bundan tashqari YouTube videolar, podkastlar, audiokitoblar kabi multimedia resurslari o'quvchilarga haqiqiy til muhitini his qilish imkonini beradi. Masalan, inglizcha seriallarni subtitr bilan tomosha qilish — tinglab tushunish, talaffuz va lug'at boyligini oshiradi. TikTok, Instagram, Telegram'dagi til o'rganish sahifalari — o'quv jarayonini oddiy hayotga singdiradi. Bu esa tilni o'rganishni “majburiyat”dan “qiziqarli odat”ga aylantiradi. Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalar chet tillarni o'rganishni erkin, ijodiy, motivatsion va interaktiv jarayonga aylantiradi. Ular o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi masofani qisqartiradi, har kimga o'z maromida o'rganish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, motivatsiya chet tillarni o'rganishdagi muvaffaqiyatning asosiy kalitidir. Ichki va tashqi motivatsiyaning uyg'unligi o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi. O'qituvchi esa bu jarayonda asosiy rolni bajaradi — u o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi, darsni jonlantiradi va ularni ijobiy kayfiyatda o'rganishga undaydi. Motivatsiyani kuchaytirish uchun texnologiyalardan samarali foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash va ijobiy psixologik muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, har bir o'qituvchi o'z darslarida motivatsiyani doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashni o'z faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylantirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “*Self-Determination Theory*” [Deci va Ryan, 1985, 20]
2. “*Social Psychology and Second Language Learning*” [Gardner, 1985, 45]
3. “*Principles of Language Learning and Teaching*” [Brown H.D., 2007, 62]
4. <https://designer-english.medium.com/how-to-use-motivation-to-make-learning-languages-easier-7123bb85d88c>
5. <https://www.linkedin.com/advice/1/what-motivates-successful-language-learners-skills-linguistics>